

BURUN BO'SHLIG'I, HALQUM, JAG' VA TISHLARDAGI NUQSONLAR

*Ishoqova Gulbaxor Uktam qizi
ATMU Defektologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada burun bo'shlig'i, halqum, jag' va tishlardagi anatomik va funksional nuqsonlarning bolalar nutq rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Defektologik nuqtayi nazardan ushbu nuqsonlarning fonetik-fonologik rivojlanishga, tovush chiqarish qobiliyatiga va muloqot faoliyatiga salbiy ta'siri ko'rsatib berilgan. Maqolada logopedik tashxis qo'yish usullari, korreksion mashg'ulotlar, ortodontik va otorinolaringologik muolajalar bilan birlgilidagi kompleks yondashuv muhimligi yoritilgan. Nutq nuqsonlarini erta aniqlash va defektologik yordam ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *defektologiya, artikulyatsiya apparati, burun bo'shlig'i nuqsoni, jag' deformatsiyasi, tish nuqsonlari, halqumda buzilish, nutq rivojlanishi, logopediya, fonetik buzilishlar, kompleks korreksiya.*

NOSE CAVITY, PHARYNX, JAW AND DENTAL DEFECTS

*Ishoqova Gulbaxor Uktam qizi
Student of Defectology, ATMU*

Annotation. This article analyzes the impact of anatomical and functional defects in the nasal cavity, pharynx, jaw, and teeth on children's speech development. From a defectological point of view, the negative influence of these defects on phonetic-phonological development, articulation ability, and communication activity is discussed. The article highlights the importance of a comprehensive approach that includes speech therapy diagnostics, correctional exercises, and combined orthodontic and otorhinolaryngological treatments. Recommendations are given on the early identification of speech disorders and the provision of defectological support.

Keywords: *defectology, articulatory apparatus, nasal cavity defect, jaw deformity, dental defects, pharyngeal disorders, speech development, speech therapy, phonetic disorders, complex correction.*

Introduction.

Artikulyatsion apparatning (burun, halqum, jag', tish) normal rivojlanishi nutqning to'g'ri shakllanishi uchun zaruriy fiziologik asosdir. Ushbu tizimdagи har qanday nuqson yoki disfunksiya bolaning tovush chiqarishi, talaffuzi, ovoz ohangi va hatto ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir qiladi. Defektologik amaliyotda bunday

anatomik nuqsonlarga alohida e'tibor qaratiladi, chunki ular logopedik korreksiya jarayonini murakkablashtiradi.

Main part.

Burun bo'shlig'i va halqum nuqsonlari.

Og'iz hamda burun bo'shliqlari nutqni kuchaytirib beradigan rezonatorlik funksiyasini bajaradi. Yumshoq tanglay pastga tushganda havo oqimi burun bo'shlig'iga o'tadi. Havo oqimi burun bo'shlig'idan o'tishi natijasida ovoz kuchayadi va ma'lum tusga, tembrga kiradi. Burun va halqumda turli xil shishlar bo'lishi, burun to'sig'ining haddan tashqari qiyshayib qolishi, bodomcha bezlarining shishi, allergik holat, xronik tumov va boshqalar ham manqalanib gapirishga yopiq rinolaliyaga olib kelishi mumkin.

Og'iz va burun bo'shliqlari nutq apparatining muhim rezonator qismlari hisoblanib, ular ovozning kuchayishi va tembrning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Yumshoq tanglayning holatiga qarab havo oqimi burun bo'shlig'iga yo'naltiriladi va bu jarayon tovushga xos tembr, tovush balandligi va ohangini belgilaydi. Burun va halqumda yuzaga keladigan patologik holatlar — masalan, shishlar, burun to'sig'ining qiyshayishi, bodomcha bezlarining kattalashuvi, allergik reaksiyalar va surunkali yallig'lanishlar — havo oqimining to'g'ri harakatlanishini buzadi. Bu esa ovozning nosog'lom rezonansga kirib, *yopiq rinolaliya* (manqalanib gapirish) shakllanishiga olib keladi. Shunday holatlarda erta tashxis va logopedik, shuningdek otorinolaringologik aralashuv nutq sifatini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jag' va tishlardagi nuqsonlar.

Og'iz bo'shlig'ining kengayishi va torayishi pastki jag'ning harakatiga bog'liq. Unli tovushlar talaffuzida pastki jag' tushiriladi, undosh tovushlar talaffuzida esa ko'tariladi. Jag' nuqsonlariga progeniya, prognatiya, yuqori va pastki jag'lar jipslashganida ulardagi oldingi, yon tishlarning noto'g'ri holatda, orasi ochiq bo'lib turib qolishi, ya'ni noto'g'ri prikus kiradi. Progeniya (grekcha pro – oldinda, genpon – iyak pastki jag'ning bir-biriga tegmasligi, jipslashmay qolishi, prognatiya (grekcha pro – oldinga, gnatos – jag' yuqori jag'ning oldinga keskin chiqib turishi natijasida tishlar qatorlarining bir-biriga tegmay oldinma-keyin turishidir. Bu turdag'i nuqsonlar tufayli talaffuz vaqtida tovush, masalan, tishlar orasidan sirg'alib chiqish o'rniga, to'siqli uchramay chiqadi. Tishlarning siyrak, qiyshiq bo'lishi ham talaffuzga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday hollarda havo oqimi tishlar orasidan chiqib tovush xushtak aralash talaffuz etiladi. Og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga balki umumiyl rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda nutq nuqsonlarining turli tavsifi, klassifikatsiyalari mavjud. Nutq nuqsonlari asosan uchta katta guruhga ajratiladi: fonetiko-fonematik xarakterli nuqsonlar, sistemali nutq buzilishlari va yozma nutq nuqsonlari. Fonetiko-fonematik xarakterli nuqsonlarga tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar, ovoz nuqsonlari, nutq sur'ati,

tempi, ritmi va ravonligidagi kamchiliklar, nutqni idrok etishning buzilishi oqibatida sodir bo‘lgan nuqsonlar kiritiladi.

Sistemali nutq buzilishlarida kishining butun nutq sistemasi shakllanmaganligi natijasida u gapirmaydi. Bunday nuqsonli kishilarda qulog‘i yaxshi eshitadi, oligofreniya yo‘q. Sistemali nutq buzilishida nutqning umumiy rivojlanmaganligi kuzatiladi. Yozma nutq nuqsonlari o‘qish va yozish malakalarini katta qiyinchiliklar bilan yoki umuman o‘zlashtira olmaydigan kishilarda kuzatiladi. Logopediya fanida ushbu nutq sistemasida nuqsonlar quyidagi terminlar bilan yuritiladi: fonetiko-fonematik xarakterli nuqsonda tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar dislaliya, rinolaliya, dizartriya, anartriya, ovoz nuqsonlaridan afoniya, disfoniya, fanasteniya, rinofaniya, laringomirlashgan ovoz kiradi. Nutq sur’ati, tempi, ritmi ravonligining buzilishiga – taxilaliya, bradilaliya, logonevroz, qoqilib gapirish kiradi. Nutqni idrok etish nuqsonlari zaif eshituvchi aqlan zaif, fonematik eshitishi buzilgan kishilarda kuzatiladi, natijada bolaning talaffuzi, ovozi, nutq sur’atida ma’lum o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Sistemali nutq nuqsonlariga alaliya va afaziyalar kirsa, yozma nutq nuqsonlariga agrafiya, aleksiya, disgrafiya, disleksiyalar kiradi.

Og‘iz bo‘shlig‘i va pastki jag‘ tuzilmasidagi anatomik o‘zgarishlar, ayniqsa noto‘g‘ri prikus (progeniya, prognatiya va boshqa tish-jag‘ nuqsonlari), tovushlarning to‘g‘ri shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bunday nuqsonlar natijasida talaffuzda havo oqimi noto‘g‘ri yo‘naladi, tovushlar noto‘g‘ri chiqadi yoki tushunarsiz tus oladi, natijada fonetik va fonematik nutq buzilishlari yuzaga keladi. Tishlar orasining ochiqligi, siyrak yoki qiyshiq joylashuvi xushtakli talaffuz kabi fonetik buzilishlarga olib keladi.

Nutq nuqsonlari logopediyada turli mezonlar asosida tasniflanadi: fonetiko-fonematik buzilishlar, sistemali nutq buzilishlari va yozma nutq nuqsonlari. Har bir guruh bolaning umumiy nutq salohiyatiga turlicha darajada salbiy ta’sir qiladi. Masalan, sistemali buzilishlarda bolaning butun nutq tizimi shakllanmaydi, yozma nutqdagi nuqsonlar esa savod o‘rganish jarayonida jiddiy muammolar keltirib chiqaradi.

Shu bois, jag‘-tish tizimi va artikulyatsion apparatdagi nuqsonlarni erta aniqlash, fonematik eshituvni baholash, talaffuzni to‘g‘rilash va mos logopedik korreksiya chorralari ko‘rish defektologik yondashuvda juda muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolaning nafaqat nutq rivojlanishini, balki ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy ishonchi va intellektual salohiyatini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Conclusion.

Burun bo‘shlig‘i va halqumda mavjud nuqsonlar bolaning nutq rivojlanishida sezilarli to‘siq yaratadi. Bu nuqsonlar fonematik rivojlanishdan tortib, nutqning umumiy sifatigacha ta’sir qiladi. Shu bois, defektologik tashxis va logopedik

aralashuvni imkon qadar erta boshlash, anatomik va pedagogik yordamni birlashtirish eng to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova “Rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar diagnostikasi” Toshkent 2016
2. Mirzayeva, D. R. (2017). Maxsus ta’lim va defektologiya. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Matg’afurova D.O. "O’smirlik davrining psixologik xususiyatlari". Oriens jurnali, 2021.
4. Nishanova Z. va boshqalar. "O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi". Ziyo istagan qalblar uchun! kutubxonasi.
5. Abdullayeva, G. (2020). *Defektologiya asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.